

A SYSTEMIC APPROACH TO SENTENCE STRUCTURE AND THE FOUNDATIONS OF FORMAL-FUNCTIONAL ANALYSIS OF COMPOUND SENTENCES

Murtazayev Avazbek Abduxopiz o'g'li

Student of Samarkand State Institute of Foreign Languages

murtazayevavazbek02@gmail.com

Abstract:

This article examines key issues in the theory of compound sentences in modern Uzbek linguistics from a systemic perspective. It justifies interpreting compound sentences as complex syntactic constructions. The study analyzes formal-functional features, the relationship between proposition and modality, and the autosemantic and synsemantic properties of components. The results highlight the need for comprehensive analysis at semantic and textual levels.

Keywords: *compound sentence, complex syntactic construction, predicativity, proposition, modality, syntax.*

GAP QURILISHIGA SISTEM YONDASHISH VA QO'SHMA GAPLARNING SHAKL-VAZIFA (FORMAL-FUNKSIONAL) JIHATDAN TAHLILI ASOSLARI

Murtazayev Avazbek Abduxopiz o'g'li

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

murtazayevavazbek02@gmail.com

Annotatsiya:

Mazkur maqolada hozirgi o'zbek tilshunosligida qo'shma gaplar nazariyasining dolzarb masalalari tizimli yondashuv asosida tahlil etiladi. Qo'shma gapni murakkab sintaktik qurilma sifatida talqin qilish zaruriyati asoslanadi. Sintaktik birliklarning formal-funksional xususiyatlari, propozitsiya va modallik munosabati, shuningdek, komponentlarning avtosemantik va sinsemantik xususiyatlari yoritiladi. Natijada qo'shma gaplarni semantik va matniy darajada kompleks o'rganish zarurligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: *qo'shma gap, murakkab sintaktik qurilma, predikativlik, propozitsiya, modallik, sintaksis.*

СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД К СТРОЕНИЮ ПРЕДЛОЖЕНИЯ И ОСНОВЫ ФОРМАЛЬНО-ФУНКЦИОНАЛЬНОГО АНАЛИЗА СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ

Муртазаев Авазбек Абдухопиз ўғли

Студентка Самаркандского государственного института

иностранных языков

murtazayevavazbek02@gmail.com

Абстрактный:

В статье рассматриваются актуальные проблемы теории сложного предложения в современном узбекском языкознании с позиций системного подхода. Обосновывается интерпретация сложного предложения как сложной синтаксической конструкции. Анализируются формально-функциональные особенности синтаксических единиц, соотношение пропозиции и модальности, а также автосемантические и синсемантические свойства компонентов. В результате подчеркивается необходимость комплексного изучения сложных предложений на семантическом и текстовом уровнях.

Ключевые слова: *сложное предложение, синтаксическая конструкция, предикативность, пропозиция, модальность, синтаксис.*

Til qurilishiga sistem yondashish tamoyili tilni shunchaki unsurlar yig'indisi emas, balki o'zaro qat'iy mantiqiy va ierarxik bog'langan qismlardan iborat yaxlit butunlik sifatida tadqiq etishni taqozo qiladi. Sintaktik sathda bu yondashuv gapni alohida olingan hodisa emas, balki til tizimidagi ierarxik zanjirning muhim bo'lagi sifatida baholashga xizmat qiladi. "Sintaktik birliklar ham til birligi sifatida tizim tarkibida sintagmatik va paradigmatic munosabatda bo'ladi. Muayyan sintaktik birlikning boshqa sintaktik birlik bilan ketma-ket munosabati sintagmatik munosabatni hosil qiladi. Til birliklari oddiydan murakkabga qarab bo'lak va butun munosabatiga kirishadi. Qimmat jihatdan bir xil birliklarning o'zaro sintaktik munosabati o'zidan yuqoriroq va yangi sifatga ega bo'lgan butunlikni hosil qiladi".⁵³ Bizningcha, sintaktik birliklarning sintagmatik va paradigmatic munosabatda bo'lishi tilning tizimli xarakterini yanada yaqqolroq namoyon etadi. Har bir sintaktik birlikning boshqasi bilan ketma-ket aloqaga kirishishi orqali sintagmatik munosabat yuzaga keladi, bu esa nutq jarayonida birliklarning qanday tartibda va qanday bog'lanishda kelishini belgilaydi. Shu bilan birga, til birliklarining oddiydan murakkabga qarab rivojlanishi, ya'ni bo'lak va butun munosabatiga kirishishi ham muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz. Chunki bir xil qiymatga ega bo'lgan sintaktik birliklar o'zaro birikib, o'zidan yuqori darajadagi yangi sifatga ega yaxlit tuzilmani hosil qiladi. Bizning fikrimizcha, aynan shu yondashuv gap qurilishini faqat tashqi shakl sifatida emas, balki ichki tizim va qonuniyatlar asosida tushunishga imkon beradi. Bu esa sintaktik hodisalarni chuqurroq va mantiqan izchil tahlil qilish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Tahlillar

⁵³ Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 1995. – 12b.



shuni ko'rsatadiki, qo'shma gap o'z tarkibidagi sodda gaplarning mexanik birikmasi bo'lmay, ularning o'zaro ierarxik munosabatidan tug'ilgan yangi sifatli butunlikdir. Masalan, Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" asaridagi "Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy kabi shoirlar yozgan "Xamsa"larni ular ikkovi birga o'qishardi, Gavharshodbegim ularni doim birga ko'rardi" qurilmasida ikki mustaqil propozitsiya bitta umumiy makon va zamon doirasida tizimlashgan.⁵⁴ Birinchi qism mutolaa jarayonini, ikkinchi qism esa kuzatuvchi subyektning munosabatini ifodalab, nutqda murakkab sintaktik yaxlitlikni vujudga keltirmoqda. Demak, gap qurilishiga sistem yondashish tildagi shakl va mazmun mutanosibligini sathlararo munosabatda ochib beradi.

Sintaktik birliklarning formal-funksional tahlili ularning tashqi ifoda shakli (sintaktikasi) va ichki anglatilgan mazmuni (semantikasi) o'rtasidagi dialektik aloqani belgilashga asoslanadi. Bu yondashuvda har bir sintaktik qurilma lisoniy belgi sifatida o'zining ifoda va mazmun planiga ega ekanligi ilmiy jihatdan dalillanadi. "Struktur tilshunoslikning lingvistik birliklarga belgi sifatida yondashuvi fonologik sathdan boshqa barcha sath birliklarini ifodalovchi va ifodalanmish munosabatidan tashkil topgan belgilar deb baholashga olib keldi. Shunga muvofiq, sintaktik birliklarning ifoda tomonini o'rganuvchi sintaktika, ifodalanmish tomonini o'rganuvchi semantika yo'nalishlari maydonga keldi. Bu ikki tomon o'zaro munosabatda o'rganilsagina sintaktik birlikning belgili tabiati to'g'ri yoritilishi aniq bo'lib qoladi".⁵⁵ Bizning fikrimizcha, tilning struktur jihatlari va uning semantik mohiyati bir-biridan ajralmas ekanini bu iqtibos aniq ko'rsatadi. Gapning faqat formal qurilishi bilan ishlash yetarli emas, chunki u semantik mazmun bilan boyitilmaguncha to'laqonli ma'no bera olmaydi. Aynan shu jihat qo'shma gaplarni o'rganishda yaqqol namoyon bo'ladi: bir necha propozitsiya yagona kommunikativ vazifa atrofida birlashib, mantiqiy va semantik yaxlitlikni hosil qiladi. Shaxsiy tajribamizdan aytganda, qo'shma gaplarni tahlil qilarkanmiz, ularning faqat grammatik shakli emas, balki mazmuniy va intonatsion aloqalari ham muhimligini tushundik. Bu esa bizni tilni faqat qoidalar yig'indisi sifatida emas, balki jonli, mantiqan bog'langan tizim sifatida ko'rishga undaydi. Kelajakda bu bilimlarimizni amaliy nutqda qo'llash, ya'ni gaplarni yaratishda faqat shaklga emas, balki mazmuniy uyg'unlikka ham e'tibor berish muhim bo'ladi. Shu bilan birga, bu qo'shma gaplarni tahlil qilishda guruh bilan birga ishlashimiz, har birimizning individual tushunchamizni sinab ko'rishimiz va bir-birimizning fikrlarimizni qo'shib, yanada to'liq natija olishimizga yordam berdi. Masalan, badiiy asarda uchraydigan "Bahor keldi va gullar ochildi" gapida tashqi shakl (va bog'lovchisi orqali bog'lanish) ichki semantik munosabatni (ketma-ketlik va sababiyat) voqelantirmoqda. Formal-funksional tahlil usuli gapning ong'dagi tayyor qolipi – lisoniy sintaktik qolip (LSQ) va uning nutqdagi konkret ko'rinishi bo'lgan nutqiy

⁵⁴ Қодиров П. Она лочин видоси. –Тошкент: Шарқ нашриёти, 2001. –112б.

⁵⁵ Аyyub G'ulomning sintaktik qarashlari. –Toshkent: Arxiv manbasi. – 4b.



hosilani farqlash imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, qo'shma gaplarni shakl va vazifa birligida o'rganish til tizimining kommunikativ imkoniyatlarini tizimli tahlil qilishning asosiy yo'lidir.

Murakkab sintaktik qurilma (MSQ) tarkibidagi gaplarni avtosemantik yoki sinsemantik xarakterda deb baholashda ularning lisoniy va nutqiy mustaqillik darajasi asosiy mezon hisoblanadi. Avtosemantik gaplar leksik va semantik jihatdan to'liq, bekami-ko'st bo'lib, ular mustaqil qo'llanilishi mumkin bo'lgan sodda gaplar xususiyatiga ega. Bunday gaplar mazmunan nisbiy mustaqil bo'ladi va asosan teng komponentli MSQ (teng bog'langan qo'shma gaplar) tarkibida uchraydi. Sinsemantik gaplar esa mazmuniga ko'ra boshqa komponentga uzviy bog'langan, u bilan birga voqelanadigan va alohida olinganda ma'no tugalligiga ega bo'lmagan birliklardir. Olimlarning ta'kidlashicha, ergash gapli qo'shma gaplarning komponentlari odatda sinsemantik xarakterda bo'ladi, chunki ularning shakllanishi bir-birini mantiqiy va grammatik jihatdan taqozo etadi. Teng bog'langan gaplarda ham ba'zan birinchi komponent avtosemantik bo'lsa, ikkinchi komponent unga ma'noviy ergashgani bois sinsemantik xususiyat kasb etishi mumkin. V.G. Admoni fikricha, komponentlarning sinsemantik belgilari grafik, ritmik-intonatsion va mantiqiy-grammatik rejalarda namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, gapning avtosemantik yoki sinsemantik ekanligi sof grammatik belgi emas, balki birinchi navbatda semantik tabiat bilan belgilanadi. Teng komponentli MSQlarda har bir qism alohida mustaqil tub strukturalarga tayangani bois, ularning avtosemantik xarakteri tobe komponentli qurilmalarga qaraganda ancha yuqori bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, avtosemantik gap o'z ma'nosini nisbatan mustaqil tashiydi, sinsemantik gap esa o'zining to'laqonli xabarini faqat boshqa gap bilan aloqaga kirishganidagina namoyon qila oladi.

An'anaviy grammatikada "qo'shma gap" tushunchasi ko'pincha sodda gaplarning mexanik birikmasi sifatida talqin etilsa, lison-nutq disxotomiyasi asosidagi tahlil MSQni gap va matn oralig'idagi o'ziga xos mikromatn maqomiga ko'taradi. Bu yondashuvda tildagi tayyor sintaktik qoliplar (LSQ) "UMIS" (umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab) sifatida, ularning nutqdagi real ko'rinishlari esa "YaHVO"(yakkalik, hodisa, voqelik, oqibat) sifatida farqlanadi. Ushbu masalaning ahamiyati manbalarda quyidagicha asoslanadi: "Teng komponentli MSQ sintaktik derivatsiyasi tabiatini o'rganish til birliklarining nutqqa ko'chirilishi muammosi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bunda til birliklarining o'zaro kesishish obyektni taqozo etuvchi MSQning nutqiy voqelanishi masalasi talqini ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bizning guruh fikrimizcha, teng komponentli murakkab sintaktik qurilmalarni (MSQ) o'rganish faqat grammatik tuzilmani tahlil qilish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon til birliklarini real nutqga ko'chirish, ularning o'zaro kesishishi va mantiqiy bog'lanishini anglash bilan bevosita bog'liq. Shaxsiy tajribamizdan aytish mumkinki, MSQ nafaqat tilning ichki tizimi, balki nutq jarayonida ham faollik ko'rsatadi. Ya'ni gaplar bir-biri bilan uzviy bog'lanib, yagona mantiqiy va kommunikativ vazifani bajaradi. Bu esa bizga sintaktik birliklarni



tahlil qilishda faqat shaklga emas, balki mazmuniy va funksional aloqalarga ham e'tibor berish kerakligini o'rgatadi. Guruh bilan ishlash jarayonida bu mavzu bo'yicha har birimizning fikrimizni baham ko'rish va bir-birimizning tushunchalarimizni sinash orqali mavzuni yanada to'liqroq angladik. Shu bilan, kelajakda bu bilimlarni real nutqda qo'llashni osonroq tushunamiz, deb hisoblaymiz.

Lisoniy ierarxiya tamoyillariga ko'ra, qo'shma gap tushunchasini "murakkab sintaktik qurilma" (MSQ) sifatida qayta talqin etish tilning tizimli tabiatini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Chunki an'anaviy "qo'shma gap" termini gapning gap ichida funksional faollik olishini anglatib, til sathlari o'rtasidagi zinapoyasimon munosabat qonuniyatiga zid keladi. "Bizningcha, qo'shma gap termini o'rniga murakkab sintaktik qurilma terminining qo'llanilishi har tomonlama ma'quldir. Chunki qo'shma gap tushunchasi til birliklarining ierarxik munosabatlarini taqozo etuvchi sistema qonuniyatiga putur yetkazadi. Boshqacha aytganda, an'anaviy qarashga ko'ra, gap ikkinchi bir gapning ichida funksional faollik oladi degan g'aliz xulosa kelib chiqadi. Vaholanki, gap gapning ichida emas, balki bevosita matn sathida o'z faolligini namoyon etadi".⁵⁶ Biz guruh bilan muhokama qilganimizda, bu fikrlar boshida biroz murakkab tuyuldi. Lekin asta-sekin tushundikki, muallif qo'shma gapga boshqacha – kengroq nuqtai nazardan qarayapti. Bizningcha, "murakkab sintaktik qurilma" termini haqiqatdan ham aniqroq. Chunki qo'shma gapni oddiygina "ikkita gap qo'shilishi" deb tushunish yetarli emas. Aslida u matn ichida alohida kichik tizim – ya'ni mikromatn sifatida ishlaydi. Guruhda ishlash davomida yana shuni sezdik: gap faqat boshqa gap ichida emas, balki umumiy matn tarkibida o'z o'rnini topadi. Bu esa tilni yanada tirik va harakatdagi tizim sifatida ko'rsatadi. Shaxsiy fikrimizcha, bu yondashuv zamonaviy va mantiqan to'g'riroq. Chunki u tilni oddiy qoidalar emas, balki real nutq jarayoni bilan bog'lab tushuntiradi. Mazkur ilmiy xulosa qo'shma gapni gap va matn oralig'idagi o'ziga xos "mikromatn" yoki mikroprotsess sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi. Bu yondashuvda komponentlar o'rtasidagi aloqa shunchaki so'zlarni birlashtirish emas, balki yaxlit lisoniy andozalarning nutqiy voqelanishi sifatida qaraladi. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romani tahlili shuni ko'rsatadiki, "Tong yaqinlashib qoldi, qarshidagi yuksak cho'qqining tepasi oqara boshladi"⁵⁷ kabi qurilmalarda har bir qism o'zining predikativlik markaziga ega bo'lsa-da, tizim sifatida bitta umumiy mazmuniy butunlikni (tabiat manzarasini) hosil qilmoqda. Shunga ko'ra, qo'shma gaplarni tizimli tahlil qilishda ularning ierarxik maqomi va funksional yaxlitligi birlamchi asos bo'lib xizmat qiladi.

Lisoniy ierarxiya tamoyillari asosida murakkab sintaktik qurilma (MSQ) va matn munosabati til birliklarining quyi sathdan yuqori sathga qarab tizimlashish qonuniyatiga tayanadi. Lisoniy ierarxiya qonuniyatiga ko'ra, har bir quyi birlik o'zidan yuqori sathdagi birlik bag'rida faollashadi, shu ma'noda MSQ gap va matn oralig'idagi

⁵⁶ Қодиров П. Она лочин видоси. –Тошкент: Шарқ нашриёти, 2001. –112б.

⁵⁷ Ёқубов О. Улуғбек хазинаси. – Тошкент, Фафур Ғулом нашриёти, 1994. – 45б



bog'lovchi bo'g'in – mikro-matn maqomiga ega. An'anaviy tilshunoslikda qo'llaniladigan "qo'shma gap" termini gapning boshqa bir gap ichida funksional faollik olishini anglatadi, bu esa til sathlarining zina poyasimon ierarxiyasiga zid keladi. Aslida, gap gapning ichida emas, balki bevosita matn (yoki uning mikro-shakli bo'lgan MSQ) tarkibida o'zining sintaktik va kommunikativ qiymatini namoyon etadi. "Bizningcha, "qo'shma gap" terminining qo'llanilishi maqsadga nomuvofiqdir, zero, mazkur termin iste'molda bo'lar ekan, til birliklarining ierarxik munosabatlarini taqozo etuvchi sistema qonuniyatiga putur yetkazilishi tabiiydir. Boshqacha aytganda, gap matn tarkibida funksional faollik ololadi, "qo'shma gap" tushunchasi esa gap ikkinchi bir gapning ichida funksional faollik oladi, degan g'aliz xulosaga kelishimiz uchun imkon yaratadi. Vaholanki, gap gap ichida emas, balki matn sathida funksional faollik oladi».⁵⁸ Biz bu fikrni o'qib, avvaliga biroz o'ylab qoldik, chunki "qo'shma gap" tushunchasi bizga ancha tanish edi. Lekin chuqurroq qarasak, bu yerda juda muhim nuqta borligini tushundik.

Bizning fikrimizcha, gapni boshqa gap ichida tasavvur qilish biroz sun'iydek tuyuladi. Chunki real nutqda biz fikrni ko'proq matn orqali ifodalaymiz, gap esa aynan shu matn ichida o'z vazifasini bajaradi. Guruh bo'lib ishlaganimizda shuni angladikki, MSQni "mikromatn" sifatida ko'rish ancha mantiqli. Bu yondashuv gaplarni oddiy bog'lanma emas, balki ma'noli tizim sifatida tushunishga yordam beradi. Shaxsiy fikrimiz: bu qarash tilni yanada chuqurroq anglashga olib keladi va ayniqsa ilmiy ishlarda ancha foydali bo'ladi. Fonemaning morfemada, morfemaning so'zda, so'zning esa gap qolipida voqelanishi ierarxik tizimning qat'iy talabidir. Binobarin, ikki va undan ortiq propozitsiyalarning (sodda gaplarning) birlashuvi natijasida hosil bo'lgan qurilmani MSQ yoki mikro-matn deb atash tilning tizimli qurilishiga to'la mos keladi. Masalan, badiiy matnlarda uchraydigan "Tong yaqinlashib qoldi, qarshidagi yuksak cho'qqining tepasi oqara boshladi" kabi qurilmalarda har bir komponent o'z predikativlik markaziga ega bo'lsa-da, ular yagona matniy butunlik tarkibida birlashgan. Bu yerda birinchi gap ikkinchisiga tobe emas, balki har ikkisi ham yuqori sath birligi matn – tarkibiy qismi (MSQ) sifatida maydonga chiqmoqda. MSQ tarkibidagi gaplar o'zining mutlaq mustaqilligini qisman yo'qotib, matn mazmuniga bo'ysunadi va shu orqali "ustpredikativlik" belgisini shakllantiradi. Shunday qilib, lisoniy ierarxiya tamoyili asosida MSQni gap va makro-matn (abzats) o'rtasidagi mikro-tizim sifatida baholash lozim. MSQ gapning nutqiy voqelanishidagi eng yuqori bosqichi bo'lib, u matn strukturasi shakllantiruvchi asosiy qurilish materialini vazifasini o'taydi.

Gap qurilishida "propozitsiya" va "modallik" tushunchalarining o'zaro nisbati formal-funksional tahlilning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Propozitsiya gap ifodalagan obyektiv voqelik (diktum) bo'lsa, modallik so'zlovchining ushbu voqelikka

⁵⁸ Turniyozov B. Hozirgi o'zbek tilida teng komponentli murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi. – Samarqand: SamDChTI nashri, 2008. – 4b.





bo‘lgan munosabati (modus)dir. “Tilda semantik-sintaktik nomuvofiqlikning yuzaga kelishi tildagi doimiy ikki tamoyilning – ortiqchalik va til vositalarini tejash tamoyillarining namoyon bo‘lishidan iborat. Birinchi tamoyilga ko‘ra bir sintaktik sodda gapda ifodalanishi lozim bo‘lgan muayyan bir propozitsiya sintaktik qo‘shma gapda ifodalanishi mumkin. Buning natijasida mazmunan sodda, ammo sintaktik qo‘shma bo‘lgan gaplar shakllanadi”.⁵⁹ Biz bu fikrni o‘rganayotib, til qanchalik “moslashuvchan” ekanini yanada yaxshi tushundik. Ya’ni, ba’zida oddiy fikrni ham murakkabroq shaklda ifodalash mumkin ekan. Til har doim ikki yo‘nalishda ishlaydi – bir tomondan qisqartirishga harakat qiladi, ikkinchi tomondan esa ba’zan ortiqcha ko‘rinadigan shakllarni ham qo‘llaydi. Bu esa tilni yanada boy va rang-barang qiladi. Bizningcha, mazmunan sodda, lekin sintaktik jihatdan murakkab gaplar nutqda ko‘proq ta’sirli yoki aniqroq ifoda berish uchun ishlatiladi. Shaxsiy fikrimiz: bu holat tilning oddiy qoidalar bilan cheklanib qolmasligini, balki real nutqda turli ehtiyojlarga qarab o‘zgarib borishini ko‘rsatadi.

Badiiy asarlarda, xususan, Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasidagi “Kechasi sovuq – kunduzi issiq” kabi qurilmalar shaklan qisqa bo‘lsa-da, mantiqan zidlanish munosabatidagi ikki xil holatni (propozitsiyani) ifodalaydi. Bu yerda shakliy tejankorlik va semantik sig‘imdorlikning tizimli namoyon bo‘lishini kuzatamiz. Propozitsion tahlil gapning ichki (semantik) va tashqi (shakliy) chegaralarini aniq belgilashga yordam beradi. Demak, qo‘shma gaplar tahlili faqat sintaktik aloqa vositalari bilan cheklanib qolmay, propozitsiyalararo munosabatlarni ham qamrab olishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1995. – 12b.
2. Қодиров П. Она лочин видоси. –Тошкент: Шарқ нашриёти, 2001. –112b.
3. Қодиров П. Она лочин видоси. –Тошкент: Шарқ нашриёти, 2001. – 112b.
4. Ёқубов О. Улуғбек хазинаси. – Тошкент, Фафур Ғуллом нашриёти, 1994. – 45b
5. Turniyozov B. Hozirgi o‘zbek tilida teng komponentli murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi. – Samarqand: SamDChTI nashri, 2008. – 4b.
6. Mahmudov N., Nurmonov A. *O‘zbek tilining nazariy grammatikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1995. – 162b.
7. Ayyub G‘ulomning sintaktik qarashlari. –Toshkent: Arxiv manbasi. – 4b.

⁵⁹ Mahmudov N., Nurmonov A. *O‘zbek tilining nazariy grammatikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1995. – 162b.

